

INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA UCHRAYDIGAN TURLI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.

Eshtayeva Dildora Kaxarovna

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

tel:909264757 dildoraeshtayeva8@gmail.com

Annotation: This article examines the diversity of contemporary teaching methods in English language education, which considers the integration of technology, student-centered approaches, communicative language teaching strategies, project-based learning, multimodal resources, and cultural competence in the pursuit of transformative learning.

Анататция: В этой статье рассматривается разнообразие современных методов преподавания английского языка, которые учитывают интеграцию технологий, личностно-ориентированных подходов, коммуникативных стратегий преподавания языка, проектного обучения, мультимодальных ресурсов и культурной компетентности в стремлении к преобразующему обучению.

Anatatsiya: Ushbu maqolada, ingliz tili ta'limidagi zamonaviy o'qitish usullarining xilma-xilligini o'rGANIB chiqadi, u o'zgaruvchan ta'limni rivojlantirishga intilishda texnologiya, talabaga yo'naltirilgan yondashuvlar, kommunikativ til o'rgatish strategiyalari, loyiharga asoslangan ta'lim.

Kalit so'zlar : Murakkab grammatika, ''B-B-B''(bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi,

''Aqliy hujum''(Brainstorming) metodi.

Xorijiy tillarni bilish darajasini oshirish maqsadida ko'plab tashabbus va islohotlar olib borilmoqda va ayni damda katta e'tibor chet tillarni o'rGANISHGA qaratilgani ham bejiz emas. Shuni bilamizki, boshqa tillar qatorida ingliz tilini o'rGANISHGA bo'lgan talab ham kun sayin ortib bormoqda. Bu dunyoda qayerga bormaylik ingliz tili allaqachon barcha uchun ommaviy tilga aylanib ulgurganligiga shubha qilmaymiz. Ingliz tili jamiyatda

odamlar uchun katta rol o‘ynaydi. Ushbu til o‘z ona tilisi bo‘lmagan odamlar uchun o‘rganish jarayonida qiyinchilik tug‘dirishi amri mahol. Jamiyatda inson o‘z o‘rnini topishlari uchun ingliz tilini o‘rganishlari, tushunishlari va ravon gapira olishlari kerak. Turli tillarda gaplashadigan boshqa mintaqalarga mansub odamlar bilan muloqot qilish va fikr almashish jarayonida ingliz tili muloqot qilishning umumiy tili sifatida qo‘llanila oladi. Biroq ingliz tili grammatikasi murakkab va qiyin va shu bilan birga o‘zbek tili grammatikasi bilan farq qiluvchi strukturaga egaligi tufayli o‘rganish jarayonida ko‘plab muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. O‘quvchilar grammatikani, ayniqsa, so‘zlashuv jarayonida qiyin deb topishlari mumkin va bu oqibatda noto‘g‘ri xabar yetkazilishiga olib kelishi mumkin. Ingliz tili grammatika qoidalari aniq emas va juda ko‘p istisnolarga ega. Natijada, ularni yodlash qiyin va qo‘llash yanada qiyinroq. Ingliz tilini o‘rganishda quyidagi muammolarga duch kelinadi: Murakkab grammatika. Talabalar uchun ingliz tili grammatikasini o‘rganish juda qiyin. Ingliz tilida so‘zlashda talabalar asosan grammatik xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Odatda, o‘quvchilar ingliz tilida so‘zlashda zamon, nisbat, so‘z boyligida xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Gap tuzish jarayonida ko‘pincha til o‘rganuvchilar zamonni farqlashda qiynalishadi va noto‘g‘ri ishlatadilar, ya’ni ba’zan ular o‘tgan zamonda gapirmoqchi bo‘lishsa, o‘tgan zamon o‘rniga hozirgi zamonda gapirishadi. Muammo ular o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonlarni qanday ishlatishni osongina farqlay olmasligidadir. Auditoriyada ona tilidan ortiqcha foydalanish. O‘rganuvchilar undan foydalanishga majbur bo‘lganlaridagina boshqa tilni yaxshi o‘rganadilar. O‘qituvchi talabalar o‘rganilayotgan tilda muloqot qilishlarini talab qilishi kerak. Ana shu holatdagina til o‘rganishda o‘sish, talaffuzda ravonlik kabi yutuqlarga erishish darajasi oshadi. Dars jarayonida qat’iyat bilan talab qilinsa va cheklovlar yo‘lga qo‘yilsagina chet tilini o‘zlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshadi.O‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik. Talabalarning jamoat joylarida ingliz tilida gaplasha olmasligining sabablaridan biri ham ishonchsizlidir. Ular odamlar oldida ingliz tilida gapira olishmaydi. Bu odatda, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarni jamoat joylarida ingliz tilida gapirishga yetarlicha rag‘batlantirmsliklari bilan bog‘liq. Odatda, o‘qituvchilar ularni sinfda yoki

одамлар oldida ingliz tilida gapishtiga undashmaydi. Ular ingliz tilini o‘rganishadi, lekin so‘zlashishni yetarlicha o‘rganishmaydi. Bu asosan talabalar sinfda yoki odamlar oldida duch keladigan muammolardan biridir. O‘ziga bo‘lgan ishonch ingliz tilida gapishtida juda muhim rol o‘ynaydi, agar talabalar o‘zlariga ishonmasa, ingliz tilida erkin gapira olishmaydi. O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi butunlay o‘qituvchilarga bog‘liq. O‘qituvchilar ularni o‘zlariga ishoniшга va jamoat oldida ingliz tilida gapishtiga ishonch hosil qilishga undashlari kerak. Agar o‘quvchilar nutqda xato qilishdan tashvishlansa, o‘qituvchilar ularga hech kim mukammal tug‘ilmasligini, har kim o‘z xatolaridan saboq olishini o‘rgatishi kerak. O‘quvchilar noto‘g‘ri gapirsalar ham, gapishtida davom etishlari kerak. Chunki ular xatolaridan saboq olishadi va xatolarini qayta-qayta gapishtida tuzatadilar. Shuning uchun ingliz tilida gapishtida o‘ziga ishonch juda muhimdir. Tarjima bilamizki, til o‘rganish jarayonida notanish bo‘lgan so‘zlarining tarjimasini lug‘atlardan qidiramiz va gap tuzishda turli xil tarjimon botlarga va ilovalarga murojaat qilinadi. Ammo bu har doim ham kutganimizdek natija beravermaydi. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, idiomatik ifodalarni yoki frazalarni tarjima qilish jarayonida tarjima muammolari paydo bo‘lishi mumkin. Idiomalarni tarjima qilish qiyin, chunki idiomani so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Tarjimon butun ma’noni tarjima qilishdan oldin tushunishi kerak. Ba’zi idiomalar tarjima qilingani kabi ma’noga ega emas bo‘lishi mumkin yoki ularni hamma gapda, nutqda ham ishlatib bo‘lmasligi mumkin. Hattoki, o‘sha tilning “native speaker” lari ham bu muammoga duch keladilar. Shunday ekan, boshqa muammolar singari idioma va frazalarning noto‘g‘ri tarjimasi so‘zlashuv sifatiga putur yetkazishi mumkin. Bitta yoki bir nechta a’lochi o‘quvchining doimiy ustunlik qilishi. Ba’zan boshqalarga nisbatan bilimliroq bo‘lgan o‘quvchilarga darsda yaxshi baholar, ma’lum darajada ko‘proq rag‘batlantirishlar berilsa ham, ularga nisbatan sustroq o‘zlashtirayotgan yoki darsga to‘liq qatnashmayotgan o‘quvchilarni butunlay unutib ularni boshqalarga nisbatan ko‘proq ruhlantirib, darsda faol qatnashishlariga imkon yaratib berish kerak . Bu emotсionalniy holat bo‘lib, til o‘rganish jarayonining uch bosqichida sodir bo‘lishi mumkin va har bir bosqichda tashvish o‘rganishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Dastlabki bosqichida

o‘quvchilar notanish til yoki tushunchalarni tushunishda qiynalayotgani uchun tashvishlanishadi. Keyingi bosqichida stress yangi so‘zlarni eslab qolish va aniqlashga urinishdan kelib chiqadi. Oxirgi bosqichida tashvish ilgari o‘rganilgan tilni qayta tiklash va undan foydalanishga urinishdan kelib chiqadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, tashvish ma’lum tilni o‘rganishga to‘sinqilik qiluvchi omillardan bir bo‘lishi mumkin, shuning uchun pedagog va o‘qituvchilar tomonidan bolaga to‘g‘ri yo‘nalish va yechim taqdimetilishi zarur . Ingliz tilini o‘rgatishning zamonaviy usullari til ta’limi landshaftini tubdan o‘zgartirdi, o‘quvchilarni ingliz tilini bilish jarayoniga jalb qilish uchun dinamik va innovatsion yondashuvlarni taklif qildi. O‘zaro bog‘langan bugungi dunyoda ingliz tilini samarali o‘qitishning ahamiyati har qachongidan ham muhimroq bo‘lib, o‘qituvchilarni ta’lim natijalarini yaxshilash uchun yangi strategiya va vositalarni o‘rganishga undaydi. Ingliz tili ta’limi chang bosgan darsliklar va cheksiz grammatika mashqlaridan uzoq yo‘lni bosib o’tdi. Dunyo o‘zaro bog‘langan bo‘lsa, ingliz tilida samarali muloqotga bo‘lgan ehtiyoj hech qachon bu qadar muhim bo‘lmagan. O‘zgaruvchan zamon bilan hamnafas bo‘lish va globallashgan dunyoda talabalarni muvaffaqiyatga tayyorlash uchun zamonaviy o‘qitish usullari muhim ahamiyatga ega. Talabalarning til bilimini oshirishdan tortib, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishgacha bo‘lgan zamonaviy o‘qitish usullari ko‘plab afzalliklarni beradi. Innovatsion yondashuvlarni ingliz tilini o‘qitishga integratsiyalashgan holda, o‘qituvchilar talabalarni yanada samaraliroq jalb qilishlari, turli xil o‘rganish uslublarini qondirishlari va oxir-oqibatda o‘rganishni yanada qiziqarli va foydali tajribaga aylantirishlari mumkin. Faqat doska va darsliklarga tayanadigan davrlar o‘tib ketdi. Ta‘lim dasturlari va onlayn platformalar ingliz tilini o‘qitishni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu vositalar interaktiv va immersiv o‘rganish tajribasini taqdim etadi, bu esa o‘quvchilarga til ko‘nikmalarini qiziqarli usullarda mashq qilish imkonini beradi. Ingliz tilida so‘zlashuvchi virtual dunyoga qadam qo‘yaningizni tasavvur qiling, u erda siz ona tilida so‘zlashuvchilar bilan suhbatlashish qobiliyatini mashq qilishingiz yoki so‘z boyligingizni yaxshilagan holda mashhur diqqatga sazovor joylarni o‘rganishingiz mumkin. Virtual haqiqat va to‘ldirilgan reallik texnologiyalari o‘quvchilarga tilni

o‘рганишлари учун real ва interaktiv muhitlarni taklif qilish orqali til o‘рганишда inqilob qilmoqda. Chet tilini o‘rganganingizda sayohat arzonlashadi va osonlashadi. Albatta ko‘p insonlar sayohat qilishni xush ko‘radi. Chet davlatlarga borganingizda chet tilini bilish sizga juda katta foyda beradi.

1. ”B-B-B”(bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o‘quvchilarning matnni tushinishini, uni tahlih qilish qobiliyatining o’sishi учун kerakli usul hisoblanadi. 2. ”Aqliy hujum”(Brainstorming)- g’oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o‘quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga : g’oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3. ”Muammoli vaziyat yechimi”(Creative Problem Solving). Bu usulni qo’llash учун hikoyaning boshlanish qismi o‘qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish o‘quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul o‘quvchida fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

4. ”Tezkor savol”(Quick answers) Bunda o‘quvchilarga o’tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o’tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. ”Pantomima”(Pantomime)- turli xildagi so’zlarni imo-ishoralar orqali tushuntirish. Bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarib o‘quvchilar charchagan paytlarida foydalanilsa maqsadqa muvofiq bo’ladi.

6. ”Hikoya zanjiri”(A chain story)- biror bir hikoyani aytib beriladi. Bu metod o‘quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantiradi.

7. ”Rasmlar so’zlaganda”(When pictures speak) usuli ancha qulay bo’lib, ingliz tilini o‘rgatishda o‘quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning учун mavzuga aloqador rasmlardan foydalanish lozim.

8. "Kviz kartochkalar" (Quiz cards)- bunda o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilarlar bir vaqtida darsda ishtirok etishini ta'minlaydi, bu esa vaqt ni ancha tejaydi.

9. "Klaster" usuli. Klasterlarga ajratish o'quvchilarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo'shish uchun samarali usuldir. 10. "Insert" metodi. Bunda o'quvchilarga biror matn yoki hikoya taqdim etiladi va o'quvchilardan uni qayta gapirib berishni talab etiladi. Bu usul matn bilan ishlanganda faollikni kuzatuvchanlikni va tushunishni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli metod hisoblanadi.

Darsda ham ko'proq muloqat qilish, so'zlarni tezroq o'zlashtirishga undaydi. Ko'proq ertak kitoblar o'qish, ingliz tilida she'rlar yod olish ham nutqni ravon qiladi qolaversa ingliz tilida multfilmlarni ko'rish ham ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga undaydi. Mana shu sababli ham, til bilishda asosiysi, eshitib takrorlashdir. Shunchaki, metodlarni mavzuga moslagan holda tashkil qilish o'qituvchining epchilligiga, tajribasiga va qaysi holda qanday metodlarni qo'llashiga bog'liqdir. "Rolli o'yin", "Fikrlar hujumi", "BBB", "Yumaloqlangan qor" kabi texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash samarali qolaversa yaxshi natija beradi. Kompyuter, telefonlardagi til o'rgatuvchi programmalar ham boshlang'ich va o'rta bosqichda til o'rgatishga yaxshi yordam beradi. Talk (English speaking practice), Daily English, Learn English (English master), How to speak real English kabilarni misol qilsak bo'ladi. Bu programmalar shunday tuzilganki, ularda reading(o'qish), listening(eshitish), test bo'limlarining barchasi o'rin olgan. O'rganilgan yangi so'zlarni telefon diktafoniga yozdirib bo'sh vaqtarda eshitish takorlash uchun yana bir yaxshi usul. Bundan tashqari ingliz tilidagi subtitrli film materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarini qamrab oluvchi boshqariladigandars jarayoni sifatida talqin etiladi. "Metod" atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqlash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardanboshlab

“didaktika” va “metodika” tor ma’noda qo’llanilib kelinmoqda. Shunga ko’ra didaktikata’lim mazmuni nima o’rgatiladi? Metodika esa ta’lim usullari qanday o’rgatiladi? Masalalaribidan shug’ullanadi. Chet tillarini o’rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o’zgamadaniyat ta’limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o’z madaniy hayotigatdbiqqilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o’rganishuzoq vaqt yuqori darajadagi ta’lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo’lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi. Chet til o’qitish metodi – deyilganda chet til o’rgatishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta’minlovchi muallim va o’quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta’lim usullari yig‘indisi” va “ta’limning yo‘nalishi” ma’nolarida qo’llanadi. Birinchidan, ta’lim nazariyasida jarayon metodlar ma’nosida ishlatilsa, ikkinchidan ma’noda uni o’qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o’qitishning tarjima metodi, to‘g’ri metod, ongli- qiyosiy metod, an’anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi. Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy tilni o’rgatish ko’proq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘z-o‘zini tahlil qilish va yangi bilimlarni tizimlashtirish ko‘nikmalariga ega ekan. Innovatsion usullar butun tizimni modernizatsiya qilishning ajralmas qismidir. Shu holda o’qituvchilar eng ilg‘or yondoshuvlar bilan tanishishlari vakeyinchalik ularni birlashtirishi va o‘z ishlarida foydalangan holda ta’limtizimida sezilarli o’sishga erishish mumkin. Ko‘plab tashkilotlar axborotni jo‘natish va olish uchun multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi darajaga o’tmoqda. Kompyuterlar va boshqa qurilmalardan foydalanish butun ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ta’lim jarayonida o’tkaziladigan treninglarda nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari ta’limda har bir darsning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mashg‘ulotni to‘g’ri tashkil etishga bog‘liqdir. Dars o’qituvchi va o’quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o’quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar va irodalari tarbiyalanadi. Yuqori darajadagi umumiylashtiruvchi madaniyatga,

ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o‘z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan etuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o‘qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib etishlari lozim. Shuni ta‘kidlab o‘tishimiz darkorki , ingliz tilini bilish har bir soha vakili uchun yangi imkoniyatlar kalitidir. Siz sohangizni yaxshi bilsangiz bitta eshik, ingliz tilini ham bilsangiz yana bir eshik ochiladi. Aynan til bilish butun dunyo uchun eshik ochar ekan xorijiy tilni qunt bilan o‘rganmoq lozim.

Foydalanilganadabiyotlar

- 1.J.J.Jalolov “Chet tillarini o‘qitish metodikasi” Toshkent -O‘qituvch-2014
- 2.ChettiliniahamiyatiMa’naviyat-2017
- 3.“Interfaol metodlar majmui” 2019

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
- 2.<https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>
3. <https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>